



№4

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasini professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Uzoq muddatli davrda davlat-xususiy sheriklik rivojlanishning muqobil ssenariylari	7
2.	Умарова Зумрад Низомиддин кизи	Консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузиш: таъйинлар, усуллар ва замонавий ёндашувлар	13
3.	Sayipov Begzod Rahimovich	Valyuta kursi va mehnat bozori barqarorligi o'rtasidagi makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashda monetar siyosatning roli	25
4.	Sharipov G'ulomjon Qarshi o'g'li	Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari	32
5.	Кабилова Шахноза Жураевна	Организационно-управленческий механизм развития сферы услуг в малом бизнесе (на примере Кашкадарьинской области)	38
6.	Xamdamov Sardor Farmon o'g'li	Davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishning xorijiy tajribasi va undan milliy amaliyotda foydalanish imkoniyatlari	43
7.	Primkulova Zilola Abrorovna	Xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning nazariy asoslari	48
8.	Kilichev Alisher Akramovich	Mavsumiy ishlab chiqarishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning xorijiy tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari	52
9.	Vaisov Dilshod Ibodullayevich	Xorijiy amaliyotda kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishning integratsiyalashgan institutsional yondashuvlari	57
10.	Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li	Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini transformatsiyalash va MHXSga o'tish istiqbollari	65
11.	Мурадов Бахром Акрамжанович	Темир йўл соҳасида инновацион инфратузилмани ривожлантириш механизмлари	72
12.	Адилов Рустам	Модели кредитного скоринга на основе больших данных: влияние на рост выручки финтех-компаний	78
13.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Investitsiya muhitini qulaylashtirish orqali hududiy investitsiya mexanizmini faollashtirish	84
14.	Саттаров Тулкин Абдихалилович	Ишлаб чиқариш харажатларининг корхоналар молиявий ҳолатига таъсири	92
15.	Kholikov Khamidulla	The current state of government securities market operations in Uzbekistan's financial market and existing problems	101
16.	Mahmudov Fayzulla Murodullayevich	Mintaqa iqtisodiy rivojlanishida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	113
17.	Uralov Farruh Abdurazzoqovich	Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasining baholanishi	119
18.	Anvarova Lobarxon Sherzod qizi	Big Data va analitik platformalar asosida qaror qabul qilish tizimini rivojlantirish	125
19.	Tojimurodov Shohzod	Mamlakat aholisining bank kreditlari bo'yicha qarz yuki tahlili va uni optimallashtirish yo'llari	131





HUDUDIIY SANOAT KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING BAHOLANISHI

Uralov Farruh Abdurazzoqovich

*mustaqil tadqiqotchi
Qarshi davlat universiteti
E-mail: F11@30f1130*

Annotatsiya. Mazkur maqolada hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Xususan, O'zbekistonda sanoat klasterlarini shakllantirishning iqtisodiy ahamiyati, hududiy ixtisoslashuv jarayonlari hamda sanoat ishlab chiqarishining hududiy integratsiyasi tahlil qilingan. Tadqiqotda hududiy sanoat klasterlarining iqtisodiy samaradorlik, investitsion jozibadorlik, eksport salohiyati va innovatsion rivojlanishga ta'siri baholangan. Shuningdek, hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish, ishlab chiqarish kooperatsiyasini kuchaytirish hamda hududlarning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: hududiy sanoat klasterlari, klasterlash, sanoat ixtisoslashuvi, hududiy iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, innovatsion rivojlanish, investitsion jozibadorlik, eksport salohiyati, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, aglomeratsiya, raqobatbardoshlik, sanoat siyosati.

ОЦЕНКА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ КЛАСТЕРОВ

Уралов Фаррух Абдураззокович

*независимый исследователь
Каршинский государственный университет
E-mail: F11@30f1130*

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты стратегии развития региональных промышленных кластеров. В частности, анализируется экономическое значение формирования промышленных кластеров в Узбекистане, процессы региональной специализации и территориальной интеграции промышленного производства. Оценивается влияние региональных промышленных кластеров на экономическую эффективность, инвестиционную привлекательность, экспортный потенциал и инновационное развитие. Также разработаны научно-практические предложения по совершенствованию стратегии развития региональных промышленных кластеров, укреплению производственного сотрудничества и повышению конкурентоспособности регионов.

Ключевые слова: региональные промышленные кластеры, кластеризация, промышленная специализация, региональная экономика, экономический рост, инновационное развитие, инвестиционная привлекательность, экспортный потенциал, производственное сотрудничество, агломерация, конкурентоспособность, промышленная политика.

EVALUATION OF THE STRATEGY FOR DEVELOPMENT OF REGIONAL INDUSTRIAL CLUSTERS

Uralov Farruh Abdurazzoqovich

*Independent Researcher
Karshi State University
E-mail: F11@30f1130*

Abstract. This article studies the theoretical and practical aspects of the strategy for the





development of regional industrial clusters. In particular, the economic significance of the formation of industrial clusters in Uzbekistan, the processes of regional specialization and the territorial integration of industrial production are analyzed. The study assesses the impact of regional industrial clusters on economic efficiency, investment attractiveness, export potential and innovative development. Also, scientific and practical proposals are developed to improve the strategy for the development of regional industrial clusters, strengthen production cooperation and increase the competitiveness of regions.

Keywords: regional industrial clusters, clustering, industrial specialization, regional economy, economic growth, innovative development, investment attractiveness, export potential, production cooperation, agglomeration, competitiveness, industrial policy.

Kirish

Hozirgi kunda hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya etish hamda hududlarning raqobatbardoshligini oshirishning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon amaliyotida klaster yondashuvi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, qo‘shilgan qiymat zanjirini kengaytirish va eksport salohiyatini kuchaytirishda samarali mexanizm sifatida e‘tirof etilmoqda. Ayniqsa, sanoat korxonalari, logistika infratuzilmasi, ilmiy-tadqiqot markazlari va xizmat ko‘rsatish subyektlarining hududiy integratsiyasi iqtisodiy o‘shishning barqaror modelini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Aholisi 38 million kishidan oshgan va so‘nggi yillarda barqaror iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini namoyon etayotgan O‘zbekiston Respublikasida ham hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasini jadallashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda hududiy sanoat salohiyatidan samarali foydalanishga alohida e‘tibor qaratilgan. Shu bilan birga, mamlakatning dengiz portlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatining mavjud emasligi transport-logistika xarajatlarini oshirib, eksport faoliyatida qo‘shimcha cheklovlarni yuzaga keltirmoqda. Mazkur holat hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish, xomashyoni chuqur qayta ishlash va eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish masalalari zamonaviy iqtisodiyotda hududiy raqobatbardoshlikni oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish va innovatsion rivojlanishni ta‘minlashning muhim omillaridan biri sifatida keng tadqiq etilmoqda. Xorijiy olimlar tomonidan klasterlash, sanoat aglomeratsiyasi va hududiy ixtisoslashuvning nazariy-metodologik asoslari chuqur o‘rganilgan [1; 2].

Xususan, A. Marshall sanoat korxonalarining hududiy konsentratsiyasi mehnat bozori, infratuzilma va bilim almashinuvi samaradorligini oshirishini asoslab, “industrial district” nazariyasini ishlab chiqqan [1]. M. Porter “klasterlar nazariyasi” orqali hududiy klasterlarning raqobat ustunligini shakllantirishdagi o‘rnini yoritib, klasterlash innovatsion rivojlanish va iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlashning muhim mexanizmi ekanligini ta‘kidlagan [2]. P. Krugman yangi iqtisodiy geografiya nazariyasida aglomeratsion samaralar, transport xarajatlari va hududiy ixtisoslashuv o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq qilgan [3]. M. Enright esa hududiy klasterlarning investitsion jozibadorlikni oshirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta‘sirini ilmiy jihatdan asoslab bergan [4].

Shuningdek, D. Foray, P. David va B. Hall tomonidan ishlab chiqilgan “aqlli ixtisoslashuv” konsepsiyasi hududlarning innovatsion salohiyatidan samarali foydalanish va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir [5]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, hududiy sanoat klasterlari iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash hamda hududlarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.





MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ham hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish va hududiy iqtisodiy siyosat masalalari keng o'rganilgan. Jumladan, A.Г. Гранберг hududiy iqtisodiyot va mintaqalararo iqtisodiy integratsiya masalalarini tadqiq qilgan bo'lsa [6], H.H. Некрасов hududiy ishlab chiqarish majmualarining iqtisodiy samaradorligini asoslab bergan [7]. B.H. Лексин va A.H. Швецов hududiy boshqaruv va mintaqaviy rivojlanish mexanizmlarini o'rganganlar [8]. Shuningdek, С.С. Артоболевский hududiy tafovutlar va aglomeratsion rivojlanishning iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilgan [9].

O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish, sanoatni hududiy tashkil etish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalalari yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, Q.X. Abdurahmonov hududiy iqtisodiy rivojlanish va mehnat resurslari samaradorligini tadqiq qilgan [10]. A.V. Vahobov hududiy iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasi va investitsion rivojlanish masalalarini yoritgan [11]. D.X. Toshmurodov hududiy iqtisodiy siyosat va sanoatni joylashtirish samaradorligini o'rgangan [12]. Shuningdek, B.B. Berkinov, N.K. Yo'ldashev va Sh.R. Xolmominovlar tomonidan klasterlash, agro-sanoat integratsiyasi va hududiy ishlab chiqarishni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan [13; 14; 15].

Mazkur ilmiy tadqiqotlarda hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari keng yoritilgan bo'lsa-da, O'zbekiston hududlari misolida sanoat klasterlari strategiyasining amaldagi holatini kompleks baholash, ularning iqtisodiy samaradorligini aniqlash va hududiy raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasining amaldagi holatini baholashda iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, guruhlash, dinamik tahlil hamda hududiy baholash usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida hududlarning sanoat salohiyati, ishlab chiqarish hajmi, investitsion faolligi va eksport ko'rsatkichlari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, hududiy klasterlarning iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini aniqlashda kompleks yondashuvdan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Zamonaviy iqtisodiyot fani va sanoat siyosati amaliyotida klasterlar konsepsiyasi markaziy o'rinni egallaydi. M. Porterning asarlarida asos solingan va keyingi tadqiqotchilar tomonidan rivojlantirilgan klassik tushunchaga ko'ra, klaster - bu o'zaro bog'liq kompaniyalar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar, turdosh sohalardagi firmalar va ular bilan bog'liq bo'lgan institutlarning (universitetlar, standartlashtirish agentliklari, savdo assotsiatsiyalari kabi) geografik jihatdan to'planishi bo'lib, ular o'zaro raqobatlashadi, lekin ayni paytda birgalikda faoliyat yuritadi. Klaster yondashuvi sanoat siyosati doirasidagi o'ziga xos tashkil etish shakli sifatida qaraladi, u bozor nosozliklarini yengib o'tish, ijobiy eksternaliyalarni yaratish va texnologik tarqalishni (spillover effects) rag'batlantirish imkonini beradi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) metodologiyasiga ko'ra, klasterlar inklyuziv va barqaror sanoat rivojlanishini rag'batlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. UNIDO yondashuvi hukumatlar sun'iy ravishda “noldan” yangi klasterlar yaratishga urinishdan ko'ra, mavjud yoki endi shakllanayotgan korxonalar aglomeratsiyalarini qo'llab-quvvatlashi va modernizatsiya qilishi kerakligiga urg'u beradi. Klasterlarni rivojlantirishda UNIDOning ustuvor yo'nalishlari o'zaro bog'liq bizneslarni birlashtirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash, muayyan hududlarga investitsiyalarni jalb qilish hisobiga yangi ish o'rinlari yaratish, shuningdek, tijorat sektori, tadqiqot institutlari va davlat organlari o'rtasida bilim almashish, hamkorlik va tarmoqli o'zaro munosabatlarni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Klaster siyosatini shakllantirish jarayonini strategik tuzilmashtirish uchun UNIDO to'rtta ketma-ket bosqichdan iborat standartlashtirilgan algoritmni ishlab chiqdi, bu O'zbekiston davlat





organlari uchun hududiy rivojlanishni rejalashtirishda samarali qo'llanma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

1-jadval.

UNIDO metodologiyasi asosida klasterlarni rivojlantirish bosqichlari va ularning strategik ahamiyati²²

UNIDO metodologiyasi bo'yicha klasterlarni rivojlantirish bosqichlari	Tavsifi va strategik ahamiyati
I Bosqich: Diagnostika, xaritalash va tanlash	Klasterning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarini amaliyotga yo'naltirilgan holda tahlil qilish (SWOT-tahlil). Rivojlanish maqsadlariga erishish uchun eng mos bo'lgan o'zgaruvchilar va mezonlarni aniqlash. Texnik ekspertiza o'tkazish va milliy ishtirokchilarni jalb qilish.
II Bosqich: Kelajakni ko'rish (vision) va rejalashtirish	Butun klaster tomonidan baham ko'riladigan umumiy qarash va mos keladigan rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish. Jarayon birgalikdagi harakatlarga to'sqinlik qilayotgan muammolarni bartaraf etish uchun davlat, xususiy sektor va akademik muhit o'rtasidagi muloqotga asoslanadi.
III Bosqich: Implemtatsiya (Joriy etish)	Harakatlar rejasida belgilangan chora-tadbirlarni boshqarish va muvofiqlashtirish. Klasterni boshqarish mexanizmlarini mustahkamlash. Barqaror jamoaviy sa'y-harakatlarni ta'minlash uchun rasmiy va norasmiy tashkilotlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish.
IV Bosqich: Monitoring va baholash (M&E)	Loyihaning sifat va miqdoriy natijalarini tizimli ravishda kuzatib borish. Strategik yo'nalishga tuzatishlar kiritish uchun qayta aloqani ta'minlash va klasterning Barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDG) erishishga qo'shgan hissasini baholash.

Ushbu jadvalda United Nations Industrial Development Organization tomonidan ishlab chiqilgan klasterlarni rivojlantirish metodologiyasining asosiy bosqichlari hamda ularning mazmuni va strategik ahamiyati keltirilgan. Mazkur yondashuv klaster siyosatini tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirishga xizmat qiladi. Jadvalga ko'ra, birinchi bosqich - diagnostika, xaritalash va tanlash - klasterning hozirgi holatini chuqur tahlil qilish, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda istiqbolli yo'nalishlarni belgilashga qaratilgan. Bu bosqich keyingi qarorlar uchun asos yaratadi. Ikkinchi bosqich - kelajakni ko'rish (vision) va rejalashtirish - barcha ishtirokchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan umumiy strategiyani ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu jarayonda davlat, biznes va ilmiy muhit o'rtasidagi hamkorlik muhim rol o'ynaydi. Uchinchi bosqich - implementatsiya (joriy etish) - ishlab chiqilgan strategiya va harakatlar rejasini amaliyotga tatbiq etish, boshqaruv mexanizmlarini mustahkamlash va klaster ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishni o'z ichiga oladi. To'rtinchi bosqich - monitoring va baholash (M&E) - amalga oshirilgan chora-tadbirlarning natijadorligini baholash, zarur tuzatishlar kiritish va klasterning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, jadval klasterlarni rivojlantirish jarayonining mantiqiy ketma-ketligi va uzluksiz boshqaruv tizimini aks ettirib, samarali iqtisodiy siyosat yuritishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy klaster nazariyasining muhim jihati bu barqaror rivojlanish tamoyillarining integratsiyasidir. Klasterlar resurslardan samarali foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, ekologik xavfsizlik va jamoalar ichida ne'matlarni adolatli taqsimlash kabi amaliyotlarni ilgari surish uchun platforma bo'lib xizmat qilishi kerak. Xususan, UNIDO klasterlarni rivojlantirish dasturlarida gender masalalarini (SDG 5) hisobga olish va

²² Muallif ishlanmasi





biologik xilma-xillikni saqlash muhimligini anglash (SDG 15) zarurligini ta'kidlaydi. Orol dengizining qurishi bilan bog'liq ekologik oqibatlar va suv resurslari taqchilligiga duch kelgan O'zbekiston sharoitida ushbu tamoyillarni klaster siyosatiga integratsiya qilish shunchaki tavsiyaviy emas, balki hayotiy ahamiyatga ega.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya etish hamda hududlarning raqobatbardoshligini oshirishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, klaster yondashuvi hududiy iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, sanoat korxonalari, logistika infratuzilmasi va ilmiy-tadqiqot institutlarining hududiy integratsiyasi iqtisodiy o'sishning barqaror modelini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Tadqiqot davomida O'zbekistonda hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilayotgani bilan birga, hududlararo infratuzilma tafovutlari, innovatsion faoliyatning yetarli darajada shakllanmaganligi hamda transport-logistika xarajatlarining yuqoriligi klaster siyosati samaradorligini cheklayotgan asosiy omillar sifatida baholandi.

Shu asosda hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish maqsadida hududlarning mavjud iqtisodiy salohiyati va ixtisoslashuv xususiyatlaridan kelib chiqib klasterlarni shakllantirish, ishlab chiqarish va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, innovatsion markazlar hamda texnologik xablarni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan sanoat korxonalari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish zarur. Shuningdek, klasterlarda “aqli ixtisoslashuv” tamoyillarini keng joriy etish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hamda eksportbop yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur takliflarni amaliyotga tatbiq etish hududiy iqtisodiy rivojlanish samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va O'zbekiston iqtisodiyotining global bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Marshall A. Principles of Economics. – London: Macmillan, 1890.
2. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
3. Krugman P. Geography and Trade. – Cambridge: MIT Press, 1991.
4. Enright M.J. Regional Clusters and Economic Development: A Research Agenda // Business Networks: Prospects for Regional Development. – Berlin: Walter de Gruyter, 1996. – P. 190–213.
5. Foray D., David P.A., Hall B. Smart Specialisation: The Concept // Knowledge Economists Policy Brief. – 2009. – № 9. – P. 1–5.
6. Granberg A.G. Osnovy regionalnoy ekonomiki: uchebnik dlya vuzov. – Moskva: GU VShE, 2000.
7. Nekrasov N.N. Regionalnaya ekonomika. – Moskva: Ekonomika, 1978.
8. Leksin V.N., Shvetsov A.N. Gosudarstvo i region: teoriya i praktika gosudarstvennogo regulirovaniya territorialnogo razvitiya. – Moskva: URSS, 2007.
9. Artobolevskiy S.S. Regionalnoye razvitie i regionalnaya politika Rossii v perekhodny period. – Moskva: Editorial URSS, 2001.
10. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. – Toshkent: Mehnat, 2009.
11. Vahobov A.V. Mintaqaviy iqtisodiyot. – Toshkent: Sharq, 2013.
12. Toshmurodov D.X. Hududiy iqtisodiyot va mintaqaviy rivojlanish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.





13. Berkinov B.B. Klasterlash asosida hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2020. – № 3. – B. 45–52.
14. Yo‘ldashev N.K. Sanoatni hududiy tashkil etish va iqtisodiy samaradorlik masalalari. – Toshkent: Fan, 2016.
15. Xolmominov Sh.R. Agro-sanoat integratsiyasi va klaster tizimini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

